



BARCHA EZGU ISHLARNING IJODKORI XALQDIR!

XALQ MINBARI

Beruniy tumanining ijtimoiy - siyosiy va ommaviy gazetasi

Gazeta 1946-yilning 1-avgustidan chiqib boshlagan

2025-yil, 25 - iyun №12 (6493), chorshanba

e-mail: xojaniyazova.loia@mail.ru / e_xat: l.xojaniyazova@exat.uz
"XALQ MINBARI" GAZETASI "Rasmiy Kanali"

DEPUTAT ISHTIROKIDAGI YIG'ILISH KUN TARTIBIDA "YASHIL ENERGIYA" HAMDA XONADONLARDA MO'RI TOZALASH MASALASI



O' Jumaniyazov saylov okrugiga O'ZLIDEPdan saylangan deputat Xojaniyazova Lola Achilovna "Sarkop" OFY "mahalla yettilligi" bilan yig'ilish o'tkazdi. "Yashil energiya" hamda xonadonlarda mo'ri tozalash, hududda favqulodda holatlarning oldini olish yig'ilish kun tartibidagi asosiy masala bo'ldi.

Yig'ilish yakunda OFYdagi ikkita xonadonga quyosh paneli o'rnatilishi aytilib o'tildi. Murojaatchi fuqarolar bilan deputat mahalla oqsoqoli bilan birgalikda alohida suhbat o'tkazishdi.

"SARKOP" OFYDAGI "SHUKURLAYEV-SHAXRIYOR" MCHJ FAOLIYATI DEPUTAT TOMONIDAN O'RGANILDI



Shu kuni deputat Xojaniyazova Lola Achilovna "Sarkop" OFYdagi "SHUKURLAYEV-SHAXRIYOR" MCHJ tomonidan beton va beton mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda bu yerda amalga oshirilayotgan boshqada ishlab chiqarish jarayonlari holatini o'rgandi.

NAZORATLASH — DEPUTAT SIFATIDAGI BURCHIMIZDIR

Bugungi kunda partiyamizning oldiga qo'ygan asosiy maqsadidan kelib chiqib, biz - deputatlar aholining murojaatlarini o'rgana turib, kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga intilamiz. Nogironligi bo'lgan shaxslarning talab va ehtiyojlari, qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlashga harakat qilamiz. Bu - bizning deputat sifatidagi burchimizdir.

Deputat bu xalq xizmatchisi, barchaga o'mak bo'ladigan, siyosiy bilimi va ongi yuksak, o'z Vatanini chin dildan sevadigan insondir. Oila, mahalla va butun jamiyatda tinchlik, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, xalqaro maydonda O'zbekiston manfaatlarini qat'iy himoya qilishda xalqimiz, barchamiz avvalo sizlarga tayanamiz, - degan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev siyosiy partiyalar va parlament vakillari oldida so'zlagan nutqida.

Partiyamizning saylovoldi dasturida O'zbekiston Markaziy Osiyoning aholi eng zich yashaydigan mamlakati hisoblanishiga urg'u berilib, tez o'suvchi demografiya davlat oldiga odamlarni uy-joy bilan ta'minlash masalasini qo'yishiga fuqarolar e'tibori qaratilgandi. Bu hayot haqiqati ekanligini inobatga olsak, bu borada mamlakatimizda keyingi yillarda aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash borasida, shu jumladan,

partiyamiz tashabbusi bilan keng ko'lami islohotlar amalga oshirildi. Xususan, davlat uy-joy siyosati va konsepsiyalari qabul qilindi, ijtimoiy davlat tamoyilining muhim belgisi sifatida oliyiy bolalar uylarining bitiruvchilarini, nogironligi bo'lgan shaxslarni, kam ta'minlangan oilalarni, ayniqsa, alohida yordamga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash, ularga subsidiyalarni berish, uylarning dastlabki badallarini to'lab berish, imtiyozli va uzoq muddatli ipoteka kreditlar berish kabi ma'lum bir choralar ko'yilmoqda. Partiyamiz o'z saylovoldi dasturidan kelib chiqib, elektoratimiz manfaatlarini o'rganib, ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarni jadallashtirish tarafdoridir.



Men ham mana shu ustuvor vazifalarni uddalashni o'z oldimga maqsad qilib olganman. Musharak maqsadlar bizni doim faol harakatga undab turadi. Faoliyatimizni "mahalla yettilligi" bilan uyg'un tarzda yuritib, saylovchilarimizning murojaatlaridagi yechimini kutayotgan masalalarni imkoni boricha vaqtida yechishga harakat qilaymiz. Zero, nazoratlash - deputat sifatidagi burchimizdir.

M. TAJIMOVA,

O'zXDPdan tuman Kengashi deputati.

Tasvirda: mahalliy Kengash deputati Murojaatchi Tajimova "Boxi" fermer xo'jaligi faoliyatini o'rganish jarayonida.

ODIL SUDLOVNI AMALGA OSHIRISHDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING NORMALARINI TO'G'RIDAN-TO'G'RI QO'LLASH BO'YICHA

2023 - yilning 1 - may kundan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri ko'plab sohalarda zarur bo'lgan normalar bilan boyitilganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu kabi normalardan biri bo'lgan Konstitutsiyaviy normalarni to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilishi sud-huquq sohasida eng ahamiyatlisidir.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish, buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqi kafolatlangan.

O'z navbatida esa, odil sudlovni amalga oshiruvchi sud o'ziga tegishli ishlarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, boshqa qonunchilik hujjatlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida hal qiladi.

Ma'lumki, u yoki bu sohada qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlari Bosh qomusimiz belgilagan normalar asosida, boshqacha qilib aytganda, shu hujjatning o'zagi sifatida qabul qilinadi. Bu bilan, Konstitutsiyada belgilagan normalar ma'lum ma'noda qolgan normativ-huquqiy hujjatlarni mazmun-mohiyatini tashkil qilib, aniqlashiradi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 15-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

Endilikda, mazkur norma asosan Konstitutsiya u qonuniy kuchga kirgan vaqtdan boshlab yuzaga kelgan tegishli munosabatlarga nisbatan bevosita qo'llanilishini tushunish mumkin.

Sudga murojaat qilgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va burchlariga doir masalalar yuzasidan uzil-kesil qaror qabul qilish vazifasi yuklatilgan sudlarning odil sudlov faoliyatida Konstitutsiya normalarining to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilishi ma'lum ma'noda alohida mas'uliyat va majburiyat yuklaydi.

Shu munosabat bilan Oliy sud Plenumi tomonidan "Odil sudlovni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to'g'ridan-to'g'ri qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida" 2023 - yil 23 - iyun kuni 16-son qarori qabul qilindi.

Qarorning 4-bandi 3-xatboshisiga ko'ra, sudlar inobatga olishi kerakki, sud hujjatlarida huquqiy asos sifatida birinchi navbatda, qoida tariqasida, Konstitutsiyaning tegishli normalariga va undan keyin yuridik kuchga qarab boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, bosharti qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya normalariga zid bo'lganligi aniqlangan taqdirda esa, faqatgina Konstitutsiyaning tegishli normalari qo'llanilishi lozimligi haqida aniq tushuntirish berilgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, umuman olganda qonunchiligiga yangi qo'shilgan muhim institutlardan biri - mutanosiblik prinsipi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini yanada himoya qilinishiga xizmat qiladi. Sudlar, davlat organlarining ta'sir choralarini bilan bog'liq ishlarda qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralarini mutanosiblik prinsipi asoslanganligi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli to'lganligini tekshirish lozim.

N. N. TAYOROV,

Fuqarolik ishlari bo'yicha Beruniy tumanlararo sudi raisi v.v.b.

SIFATLI BILIM:

MUAMMO, YECHIMLAR VA KELAJAK

Bilim - har qanday jamiyatning asosiy taraqqiyot omili, bugungi kunda yanada ahamiyatli bo'lib bormoqda. Ammo, bilimning sifati va undan foydalanish usullari juda muhim masalalarni yaratadi. Xususan, sifati yuqori bilimga ega bo'lish zamonaviy jamiyatda insonlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy bilim tizimi ko'pincha, formal va standartlashtirilgan va bu talaba yoki mutaxassislar uchun bilimni chuqur va aniq o'zlashtirish imkonini cheklaydi. Masalan, ko'plab ta'lim muassasalari talabalarga faqat ma'lum bir fan sohasida tanishish maqsadida bilim berishga yo'naltirilgan. Bu esa bilimning uzluksiz va chuqur ravishda rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shundan kelib chiqib, ta'lim jarayonida aniq yo'nalishdagi eng yangi ilmiy natijalar va zamonaviy metodikalarni qo'llash masalasi ham dolzarbdir.

Shu bilan birga, bilimning sifati faqat darslarda o'rganish bilan chegaralanmasdan, uni amaliy va ijodiy faoliyatga qo'llashda ham o'chanadi. Bugungi kunda ko'plab odamlar, oliy ta'lim olishga urinishlariga qaramay, shunchaki rivojlanish uchun zarur bo'lgan muhim ko'nikmalardan mahrum bo'lishmoqda. Ma'lumotlar aniq bo'lsa-da, ularni amaliy sohada foydalanish uchun yetarlicha kompetensiyalar yo'q.

Bilimga yondashishni chuqurlashtirish, tadqiqot va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga ehtiyoj bor. Ta'lim muassasalarida ilmiy va amaliy ko'nikmalarga e'tibor qaratish, talabalarga faqat faktlarni yodlash emas, balki ularni tahlil qilish va yangi masalalarga yechim topishga intilishlari zarur. Ijodiy fikrlash, mustaqil tadqiqotlarni rivojlantirish uchun muhit yaratish, ushbu masaladagi asosiy yechimdir.

Shuni e'tirof qilish o'rinli, zamonaviy bilim texnologiyalarining joriy qilinishi ta'limning samaradorligini oshirish imkonini beradi. Onlayn kurslar, interaktiv platformalar va sun'iy intellektdan foydalanish talabalarga ko'p yangiliklardan xabardor bo'lish va bilimni ko'p jihatdan o'stirish imkoniyati yaratadi.

Bilimni amalga oshirishda jamoaviy ishlash muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalarida faqatgina individual ta'lim emas, balki jamoaviy tahlil va diskussiyalar ham muhim bo'lib, ular talabalarning bilimni aniq va to'g'ri qabul qilishlariga yordam beradi. Maxsus muloqot va hamkorlikka ega platforma va kurslar ularning salohiyatini yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradi.

Bilimni sifatli o'zlashtirish uchun talabalarning psixosotsional holatiga e'tibor berish muhim. Ular uchun faqat bilim olish emas, balki o'ziga ishonch, ijobiy munosabat va kelajakka ishonch ham kerak. Shuning uchun ta'lim jarayonida psixologik qo'llab-quvvatlash, o'qishni rag'batlantirish va motivatsiya berish juda muhim.

Bilimning sifatini oshirish, aynan, kelajakda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridan biri bo'ladi. Bugungi kunda tahlil qilinayotgan tendensiyalar va yangi loyihalar ta'lim tizimlaridagi asosiy o'zgarishlarni ko'rsatmoqda. Shulardan ba'zilari:

- xalqaro hamkorlik va transfer bilimlari. Bilimning globallashuvi va xalqaro hamkorlik natijasida, mamlakatlar o'rtasida ma'lumot almashinuvi va tajriba to'plash ko'payadi. Bu, o'z navbatida, bilimni ko'plab kontekstlarda qo'llash imkoniyatini beradi;
- jonli ta'lim va g'ibrid modellar. Jonli ta'lim usullari, ya'ni virtual va amaliy o'qishning birlashishi kelajakda ta'limning sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu,

BOLANGIZ SALOMAT BO'LSIN!

Yo'tal, burun oqishi va isitma, asosan yilning sovuq oylarida, ko'proq kichik yoshdagi bolalarda uchraydigan holatlardir. Bu holatlar nafas yo'llari va quloqlarning yallig'lanishi natijasida kelib chiqadi hamda pnevmoniya kasalliklarining belgilari hisoblanadi. Bu kasalliklar nafas yo'llarining o'tkir infeksiyalari, deb ataladi. Agar yo'talayotgan, burni oqayotgan va isitmalayotgan bola o'z vaqtida va to'g'ri parvarish qilsa, kasalliklar odatda bir necha kun davomida o'tib ketadi.

Pnevmoniya bronxitning eng og'ir asorati hisoblanib, o'pka shamollashi, deb ham ataladi va bu kasallik bir necha kun davomida bolaning o'limiga dib kelishi mumkin. Ayniqsa, bu kasallikka go'daklar hayotlarining dastlabki oylarida, yengil vazn bilan tug'ilgan bolalar yoki oziqlanishining yetarli bo'lmaganligi tufayli darmoni qurigan bolalar ko'proq chalinadi.

Kasallik davrida, isitma yoki tez - tez nafas olishi natijasida, bola tanasida ko'p suyuqlik yo'qotiladi. Shuning uchun bola o'zini yaxshi va sog'lomroq his qilishi uchun, unga qo'shimcha suyuqlik kerak bo'ladi.

Agar bola emizikli bo'lsa, uni albatta odatdagidan ko'ra ko'proq va uzoqroq emizing. Bola necha marta xohlasa va qancha xohlasa shuncha emizing. Agar bola 6 oylikdan kichik bo'lsa, unga ona sutidan boshqa hech narsa bermang.

Agar bola 6 oylikdan katta bo'lsa, unga odatdagidan ko'ra ko'proq iliq ichimliklar, masalan, toza qaynatilgan

suv, vitamin C ga boy bo'lgan meva sharbatlari va kompotlari, qatiq, sho'rva, bulon yoki guruch qaynatmasini ichiring. Bolani odatdagidek ovqatlantirishni davom ettiring. Bu bolaning sog'ayishi va kasallik bilan kurashishiga yordam beradi. Unga iloji boricha yumshoq, ishtahasini ochuvchi va ayniqsa u yaxshi ko'rib yeydigan turli xil taomlardan bering. Bolani ko'proq ovqat yeyishiga tez-tez va oz - ozdan odatlantiring. Sog'aygach, bola o'z kuchini tiklab olishi uchun, uni odatdagidan ko'ra ko'proq ovqatlantirish lozim bo'ladi.

Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni butun dunyo bolalari uchun eng bog'ubor va quvonchli bayram hisoblanadi.

Albatta, bola dunyo, hayot, millat davomchisi. Bolalar o'z tabassumlari orqali insonlar qalbidagi hayotga, yashashga bo'lgan qiziqishni uyg'otadilar.

Ko'zlarida ezgulik va mehr qalqib turgan bolajon musaffo osmonda erkin parvoz etayotgan qaldir'och misolidir.

1 - iyun sanasini Xalqaro Bolalarni himoya qilish kuni sifatida nishonlanishi taklifi 1925 - yili Shveysariyaning Jeneva shahrida ilgari surilgan. 1950-yilda esa 1-iyun - Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida butun dunyo Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni sifatida nishonlanib kelinadi.

1-iyunda yurimiz bo'ylab kelajagimiz egalari uchun konsert dasturlari, ko'rgazmalar, sayllar, sport musobaqalari o'tkazildi. Istirohat bog'lari esa bolalarning tabassumlari bilan go'yoki mo'jizalar dunyosiga aylandi.

U. MAVLENOV,
TTB bolalar bo'limi mudiri,
oliy toifali shifokor.



TAMAKIGA QARSHI KURASH - BUTUN JAMOATCHILIK ISHI

Ma'lumki, 31-may Butunjahon bo'ylab tamaki chekishni kamaytirish kuni sifatida belgilanib, chekishni kamaytirish, ayniqsa yoshlarning chekishini oldini olish bo'yicha ishlari qilinadi.

Tamaki tarkibidagi nikotin qaramlikni keltirib chiqaradi hamda uning iste'moli yurak-qon tomir va nafas olish tizimi kasalliklari, saratonning 20 dan ortiq turlari va boshqa ko'plab nogironlikka olib keluvchi kasalliklarning rivojlanishini uchun asosiy xavf omilidir. Har yili 8 milliondan ortiq odam tamaki iste'moli oqibatlaridan vafot etadi.

Butun dunyo bolalarining qariyb yarmi tamaki tutunidan zararlangan havodan nafas oladi, ularning 65 ming nafari aynan shuning oqibatida olamdan o'tadi. Homiladorlik paytida chekish minglab bolalarning umrbo'yi davom etadigan ko'plab jiddiy kasalliklarga chalinishiga olib keladi. Demak, tamaki - inson umri kushandasidir.

O'zbekistonda xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda yoshlarni tamaki mahsulotlaridan himoya qilish

TAMAKI - INSON UMRI KUSHANDASI

maqsadida qator choralar ko'rilmog'da. Xususan, 2023-yil 24-mayda O'zbekiston Respublikasining "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi Qonunning qabul

qilinishi nafaqat yurtdoshlarimiz, balki xalqaro hamjamiyat tomonidan ham mamnuniyat bilan qarshi olindi.

2024-yilning 18-mayida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tamaki mahsulotlari uchun texnik reglamentni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Hozirda vakolatli organlar tomonidan tamaki mahsulotlarining noqonuniy aylanmasiga qarshi choralar ko'rilib, ularning zarari to'g'risida aholining xabardorligini oshirish bo'yicha targ'ibot tadbirlari o'tkazilmoqda.

I. YUSUPOVA,
Salomatlik va strategik rivojlanish instituti
hududiy bo'limi assistent - mutaxassis hamshirasi.



talabalarga har doim zamonaviy ma'lumotlarga kirishish imkonini yaratadi; - texnologiya va sun'iy intellekt.

Kelajakda sun'iy intellekt va avtomatlashtirish ta'limni tashkil etishning yangi yo'nalishlari bo'ladi. Mashina o'rganish va nutqni tanish texnologiyalari bilimni to'g'ri va tez transformatsiya qilish imkonini beradi.

Demak, sifatli bilimning ahamiyati bugungi kunda yanada oshmoqda. Muammolarga yechim topish uchun ta'lim tizimlarini yanada takomillashtirish, texnologik innovatsiyalardan foydalanish va ijodiy yangiliklarga ochiq bo'lish zarur. Kelajakda bilim olishning yangi shakllari va yo'nalishlari, barcha uchun yangi imkoniyatlar va chegaralar yaratishi mumkin.

S. R. ABDALOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti,
p.f.n.



"XALQ MINBARI"GA OBUNA BO'LISHGA SHOSHILING!

Gazetxon va obunachilar diqqatiga! "Xalq minbari" gazetasiga 2025-yilning 2-iyun uchun obuna pochta bo'limi, "MT" UK hamda tahririyatning o'zida cheklanmagan miqdorda qabul qilinadi.

Gazetamiz berunliklarning salkam 80 yillik sirdoshi, do'sti va dastyori sanaladi.

Har biringizda eng taol gazetxon bo'lish, ma'naviyatigizni boyitish imkoniyati bor. Shoshiling azizlari "Xalq minbari" - Sizning gazeta!

TAHRIRIYAT

YO'QOLGANLIGI UCHUN QUYIDAGILAR BEKOR QILINADI:

- Beruniy tumanidagi DXMd 2020-yilning 17-aprelida 836456-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan "XURSAND BAXRI BUNYOD 2020" fermer xo'jaligi (STIR:307 295 808)ning dumaloq muhr va to'rtburchakli tamgasi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi "Toza hudud" davlat unitar korxonasi Beruniy tumani filiali dumaloq muhri;
- Beruniy tumani "Oltin soy" OFYda yashovchi Maturazov Shermat Uralayevich nomidagi GBASNG M412IE028 rusumi, 95B934DA davlat raqam belgisi, 1989-yili ishlab chiqarilgan yengil avtomashinaning old va orqa taraf davlat raqam belgisi.

Tahririyat manzili: 230 200, Beruniy shahri, «Xalqlar do'stligi» ko'chasi, 1-ter ko'cha, 3-uy.
Telefon: Bosh muharrir: 55 - 110-3848.

Gazetaning sifatli chop qilinishi uchun boshxona, obunachiga vaqtida yetib borishi uchun pochta bo'limi va «MT» unitar korxonasi javobgar.

Gazeta «Quvanchbek - Mashxura» MCHJ boshxonasida chop qilindi. Boshxona manzili: Urganch sh., Islom Karimov ko'chasi, 106 - uy.

XALQ MINBARI

MUASSIS:
XALQ DEPUTATLARI
BERUNIY TUMAN KENGASHI
VA BERUNIY TUMANI
HOKIMLIGI

Maqolalardagi fakt va raqamlar uchun mualliflar javobgar. Ikki varaqdan ziyod maqolalar qabul qilinmaydi. Qo'lyozmalar va suratlar egalari qaytarilmaydi.

Muharrir
Lola XO'JANIYOZOVA

Gazeta 2016 - yilning 22 - avgustida Qoraqalpog'iston Respublikasi Matbuot va Axborot Agentligida №01-074-sonli qayvonoma bilan qayta ro'yxatga olingan.

Gazeta materiallari tahririyat kompyuterida teriladi va sahifalandi. Nusxasi - 926

GAZETA OYIGA KAMIDA IKKI MAROTABA CHOP QILINADI. NASHR KORSATKICHI-94010

Buyurtma № 116
Hajmi-1 boshqa taqoq. Ofset usulida bosilgan. Bosishga ruxsat qilingan vaqti - 18.00.

Bahosi kelishilgan narxda.
Navbatchi: BAZARBAYEVA.

Gazeta «Quvanchbek - Mashxura» MCHJ boshxonasida chop qilindi. Boshxona manzili: Urganch sh., Islom Karimov ko'chasi, 106 - uy.